

ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Philosophy and Life

FALSAFA VA HAYOT • ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ

2025 № 3-4 (30-31)



ISSN 2181-9505
Doi Journal 10.26739/2181-9505

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universiteti
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi
O'zbekiston falsafa jamiyati

Национальный Университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
Международный научно-исследовательский центр Имам Бухари
при Кабинете Министров Республики Узбекистан
Философское общество Узбекистана

The National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers
of the Republic of Uzbekistan
Philosophical Society of Uzbekistan

**FALSAFA VA HAYOT
XALQARO JURNAL**

**ФИЛОСОФИЯ И ЖИЗНЬ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ**

**PHILOSOPHY AND LIFE
INTERNATIONAL JOURNAL**

2025 № 3-4 (30-31)

Jurnal bir yilda 4 marta nashr qilinadi.
Журнал выходит 4 раза в год.
The journal is published 4 times in a year.



Toshkent

“Falsafa va hayot” xalqaro jurnal
“Философия и жизнь” международный журнал
“Philosophy and Life” International journal

<p>Tahrir kengashi Abdildina, R.J. - Qozog'iston FA akademigi, f.f.d., professor Mamedzade, I.R. - Azarbayjon FA Falsafa va sotsiologiya instituti direktori, f.f.d., professor Skarantino, L.M. - Jahon falsafa jamiyatlari federatsiyasi prezidenti, DSc, professor, (Italiya) Smirnov, A.V. - Rossiya FA akademigi, Rossiya FA “Falsafa” instituti direktori, Rossiya FA prezidenti, f.f.d., professor (Rossiya) Seytaxmedova N.L. - Qozog'iston FA muxbir a'zosi, f.f.d., professor Tsuy Veyxan - Xitoy ijtimoiy fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti, DSc, professor, (Xitoy) Chumakov, A.N. - Rossiya FA Falsafa institute professori, f.f.d., (Rossiya)</p> <p>Muassislar: Mirzo Ulugbek nomidagi Uzbekiston Milliy universiteti O'z.RV M huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy - tadqiqot markazi O'zbekiston falsafa jamiyati Expert lawyers МЧЖ Elc.uz</p> <p style="text-align: center;">Ro'yxatga olinganligi haqidagi 1175 sonli guvohnoma O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 20.02.2018 yilda berilgan.</p>	<p>Bosh muharrir: Shermuhamedova, N.A. - f.f.d., professor (O'zbekiston) Bosh muharrir o'rinbosari: Aslanova R. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Mas'ul muharrir: Muhamedova Z.M. – f.f.d., prof. (O'zbekiston) Tahrir hay'ati: Allahyarova, T., - f.f.d., professor (Azarbayjon) Andirjanova, G.A., - s.f.d., professor (Qozog'iston) Abasov, A.S. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Buzarinejad, Y. - PhD, dotsent, Tehron universiteti Alborz fakulteti dekani; (Eron) B.K. Santosh Kukreja, - DS professor (Hindiston) Bilalov, M.L., - f.f.d., professor (Rossiya) Gabitov, T.X., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Kerimov E. - f.f.d., professor (Azarbayjon) Gezalov, A.A., - f.f.n., professor (Rossiya) Olatunji Feliks – PhD, dotsent (Nigeriya) Pardayev S.P. – falsafa doctori PhD, (O'zbekiston) Tulenova G. J - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tesdelen, Vefa, - f.f.d., professor (Turkiya) To'rayev, B.O., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Tyukmaeva A.M. – falsafa doctori PhD (O'zbekiston) Kurmangalieva, G. K., - f.f.d., professor (Qozog'iston) Qurbonova L.A. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Xudoydodzoda F.B., - f.f.d., professor (Tojikiston) Hakimov N. H. – f.f.d., professor (O'zbekiston) Xudoyberganov R. – DSc, dotsent (O'zbekiston) Mahmadizoda N. – f.f.d., professor (Tojikiston) Naushabaeva, A. Hakimoglu - PhD filos., professor (Turkiya) Paxruddinov, Sh.I.- s.f.d., professor (O'zbekiston) Sergeev, M.Y., - professor (AQSH) Sagikizi A.- f.f.d., professor (Qozog'iston) Urmanbetova, J.K., - f.f.d., professor (Qirg'iziston) Chjan Baychun, - f.f.d., professor (Xitoy) Shadmonov, Q., - f.f.d., professor (O'zbekiston) Sharipova E.K. – f.f.d., professor (Qirg'iziston) Ilmiy kotib: Xidirov, M.T. – falsafa doctori PhD, dotsent (O'zbekiston) Musahhihlar: Qodirov J. (O'zbekiston) Po'latov A. (O'zbekiston)</p>
---	--

MUNDARIJA
SIYOSAT VA JAMIYAT FALSAFASI

Inaqov Qudratjon Qadirjanovich	RAQAMLI JAMIYAT SHAROITIDA MAFKURA TRANSFORMATSIYASI VA IJTIMOIIY ONG DINAMIKASI	9-19
Qosimova Nazira Omurqulovna	GARMONIYA VA HAMKORLIK: DIPLOMATIYANING AYOLLAR O‘LCHOVI	20-30
Rasulov Rustambek Odilovich	AXBOROT VA KOMMUNIKATSIYA TIZIMIDA SIYOSIIY MAFKURALAR TARG‘IBOT METODOLOGIYALARINING O‘ZGARUVCHALIGI	31-37
Shayildayeva Asel Kokoyevna	XALQ DIPLOMATIYASIDA AYOLLAR YETAKCHILIGI: MAS‘ULIYAT VA G‘AMXO‘RLIK FALSAFASI TA‘LIM VA FAN FALSAFASI	38-45
Qurbonova Lolaxon Abduxadimovna	ELITAR TA‘LIM MODELLARIGA SUN‘IY INTELLEKTNING INTELLEKTUAL VA MA‘NAVIY TA‘SIRI	46-53
Xaydarova Aqida Xurramovna	TANLANISH MEXANIZMI VA EPISTEMOLOGIK RATSIOANALLIK DIALEKTIKASI	54-60
Usmonov Muxriddin Abdimuradovich	IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI	61-75
Shermuhamedova Niginaxon Arslonovna	SINERGETIK VA DIALEKTIK TAFAKKUR VA ULARNING MURAKKAB TIZIMLARNING RIVOJLANISHINI TUSHUNISHDA ROLI FALSAFA TARIXI VA TARIX FALSAFASI	76-85
Pardayev Sultonmurod	DUNYONING ILMIY MANZARASI EVOLYUTSIYASINING KLASSIK, NOKLASSIK VA POSTNOKLASSIK DAVRLARI VA ULARNING O‘ZARO TA‘SIRI	86-96
Qodirov Javlonbek Abdusattor o‘g‘li	ZAMONAVIIY FALSAFADA ONGGA OID POSTMODERN VA NEYROFALSAFA SOHALARIDAGI QARASHLAR DINAMIKASI	97-104
Sapayev Valisher Odilbek o‘g‘li	SUN‘IY INTELLEKT FENOMENINING IJTIMOIIY JARAYONLAR BILAN BOG‘LIQ JIHLTLARI VA UNING MAFKURAVIIY AHAMIYATI DUNYO MADANIYATI VA DINIIY AN‘ANALAR	105-116
Alaje, Olubunmi Oyebola	FATOU FANNY-CISSÉ‘NING “MADAME LA PRÉSIDENTE” ASARIDA MISTITSIZM, GENDER ASOSIDAGI KUCH VA YETAKCHILIKNING ETNOLINGVISTIK TASVIRI	117-132
Qudratov Siroj Xolmatovich	MILLIIY VA GLOBAL TAJRIBALAR ASOSIDA YOSHLAR AXBOROT MADANIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI	133-145

Usmonov Muxriddin Abdimuradovich

falsafa doktori PhD

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti

musmanov@gmail.com

(Toshkent, O‘zbekiston)

**IDROKNING TAFAKKUR USLUBINING ONTOLOGIK POYDEVORI
SIFATIDAGI MOHIYATI VA UNING ONG - BORLIQ O‘RTASIDAGI
MUNOSABATLARNI TUSHUNISHDAGI AHAMIYATI**

Annotatsiya. Idrok tafakkur uslubining ontologik asosi bo‘lib, u ong va borliq o‘rtasidagi munosabatlarni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Idrok inson ongining borliqni qabul qilishi, uni anglash va ma‘no bilan to‘ldirish jarayonida hal qiluvchi o‘rin egallaydi, tafakkur uslubining shakllanishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shu bilan birga, idrokni mutlaq ontologik asos sifatida qarash tafakkurning ijtimoiy, tarixiy va madaniy shartlanganligini ikkinchi darajaga surib qo‘yish xavfini keltirib chiqaradi. Shu bois ushbu maqolada idrokning ontologik mohiyatini ongning ijtimoiy-madaniy omillari bilan uzviy bog‘liqligi tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: idrok, tafakkur uslubi, ontologiya, ong, borliq, bilish.

KIRISH

Idrok insonning atrof-muhit bilan aloqasini ta‘minlaydigan “oddiy qabul qilish” mexanizmi emas, balki tafakkur uslubining ontologik poydevori sifatida voqelikning inson ongida qanday mavjud bo‘lishi, qanday tartibga solinishi va qanday ma‘no kasb etishini belgilab beruvchi asosiy jarayondir. Agar ontologiya borliqning «qanday borligi» haqidagi ta‘limot bo‘lsa, idrok ana shu borliqning inson uchun qanday ko‘rinishda voqelanishini ta‘minlaydi, inson har qanday fikrlash uslubini, xususan ratsional-analitik, obrazli-simvolik, tanqidiy, ijodiy, pragmatik va h.k. kabilar dastlab idrok orqali maqsadga yo‘naltirishi, diqqatning tanlovchanligi, tajribani umumlashtirish orqali shakllantiradi. U sezgilar, ya‘ni tashqi muhitdan keluvchi ta‘siirlarni qabul qilish va talqin qilish, ya‘ni ushbu sezgilarning ma‘noga ega bo‘lgan shaklga aylanishi o‘rtasidagi ko‘prik vazifasini bajaradi. Shu jihatdan, idrok fiziologik va kognitiv jarayonlarning tutashgan nuqtasi sifatida ham biologik, ham intellektual jarayon sifatida baholanishi mumkin. Fiziologik jihatdan idrok sezgi a‘zolarining tashqi muhitdan turli ma‘lumotlarni, xususan yorug‘lik, ovoz to‘lqinlari yoki teginish bosimini qabul

qilishi va murakkab asab tizimlari orqali miyaga yetkazishi bilan boshlanadi. Biroq, bizning fikrimizcha, idrok faqat sezgilardan iborat deyish noto'g'ri, chunki u mazkur ma'lumotlarni tartibga solish va talqin qilish kabi kognitiv operatsiyalarni ham o'z ichiga qamrab oladi. Bu jarayon natijasida sezgilardan yaxlit va izchil tajribalar shakllanib, insonning atrof-muhit bilan o'zaro munosabati uchun asos bo'ladi. Shu ma'noda idrok sezgi bilan tafakkur orasidagi oddiy ko'prik emas, balki tafakkurning uslubiy asosi, ya'ni nimani muhim deb bilish, nimani asos sifatida qabul qilish, voqelikni qanday "kesib olish", qanday kategoriyalar bilan bog'lashni beruvchi ontologik mexanizmdir.

Idrokning tafakkur uslubi sifatidagi ontologik poydevorini ochib berish, shuningdek, ong va borliq o'rtasidagi munosabatlarini aniqlashga oid xorijiy, rus va o'zbek falsafa maktablari vakillari tadqiqotlar olib borganlar. Masalan, Martin Haydegger idrokni inson mavjudligining (dasein) ontologik asosi sifatida talqin qilgan, uning fikricha inson borliqni avval bilish orqali emas, balki idrokiy-amaliy munosabat orqali ochadi [Heidegger, 1927, p.58], bu yondashuv idrokni faqat gnoseologik emas, balki ontologik fenomen sifatida asoslash imkonini beradi. Edmund Gusserl fenomenologiyasida idrok ongning intensional tuzilishi sifatida tahlil qilingan. U idrokni borliqning ongda qanday namoyon bo'lishini tushuntiruvchi asosiy mexanizm deb hisoblagan [Husserl, 1913, p.92], bu yondashuv ong va borliq o'rtasidagi munosabatni tafakkur uslubi orqali ochishga metodologik zamin yaratgan. Immanuil Kant idrokni sezgilar va aqlning sintezi sifatida ta'riflab, borliq inson ongida shakllanishini ta'kidlagan [Kant, 1781, p.137], Kant konsepsiyasi idrokning tafakkur uslubiga aylanish jarayonini transsendental asosda tushuntirish imkonini beradi.

Evald Ilenkov tafakkur va idrokni ijtimoiy-amaliy faoliyat mahsuli sifatida izohlagan. Uning fikricha, idrok real borliqni faol o'zlashtirish jarayonida shakllanadi [Ilenkov, 1977, p.64], ushbu yondashuv idrokning ontologik poydevorini ijtimoiy borliq bilan bog'laydi. Aleksey Losev idrokni ma'no va shakl birligi sifatida talqin qilib, uni borliqning simvolik ochilishi deb hisoblagan [Losev, 1982, c.211], bu qarash idrokning semantik va ontologik qirralarini ochishda muhim ahamiyatga ega. S. Shermuxamedov inson ongi va borliq munosabatlarini milliy tafakkur an'analari asosida tahlil qilib, idrokni ma'naviy-ontologik jarayon sifatida baholaydi [Shermuxamedov, 2005, b.89], ushbu yondashuv idrok masalasini mahalliy falsafiy kontekstda ochib berish imkonini beradi. A. Ergashev idrokni tafakkur uslubi sifatida ko'rib, uning borliqni anglashdagi rolga alohida e'tibor qaratadi [Ergashev, 2010, b.146], mazkur manba tadqiqot mavzusining to'g'ridan-to'g'ri nazariy asosini tashkil qiladi.

Idrokning borliq bilan bog'liq mohiyatini ochib berish, uning tafakkur uslubi sifatidagi poydevorini aniqlash uchun ontologik tahlil metodi, idrokning ongda qanday namoyon bo'lishini, intensional xususiyatlarini tahlil qilishda fenomenologik metod, falsafiy matnlar va konsepsiyalarni talqin qilish, ulardagi idrok va borliq munosabatlarini ochish maqsadida germenevtik metod, xorijiy, rus va o'zbek olimlari qarashlarini o'zaro qiyoslash orqali umumiy va farqli jihatlar aniqlashda qiyosiy-tahliliy metod, idrok, ong va borliq munosabatlarini yaxlit

falsafiy tizim sifatida ko‘rib chiqishga tizimli yondashuv metodlaridan foydalanilgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Antik falsafada bu irdrok masalaning dastlabki tizimli shakli Aristotelning “Ruh haqida” asarida o‘z ifodasini topgan, u idrokni tashqi ta’sirning shunchaki mexanik izi emas, balki shaklni qabul qilish orqali predmetni ma’noli hodisa sifatida ochib beradigan faol jarayon sifatida tushuntirgan, uning “idrok moddasiz shaklni qabul qilish”, [Aristotel, 2015, p.56] degan g‘oyasi idrokning ontologik ahamiyatini namoyon etadi. Ya’ni unga ko‘ra inson tashqi narsani o‘z ongida moddiy ko‘chirib olmaydi, balki uning shakli-sifati, tartibi, farqi va munosabatlarini qabul qiladi. Bunda idrok tafakkurning keyingi bosqichlari uchun tayyor material emas, balki borliqni inson uchun borliqqa aylantiradigan ibtidoiy modusi sifatida namoyon bo‘ladi, inson nimani “narsa”, “hodisa”, “sabab”, “belgi” deb bilishi avval idrokda yaratilgan yaxlitlik va farqlar tizimiga bog‘liq. Aristotel fikricha, idrokning asosi sezgilarda bo‘lib, ularni insonning tashqi dunyo bilan o‘zaro munosabatdagi asosiy kanallaridir. U, “idrok sifatlari dispozitsional xossalar sifatida hayvonlar sezgi qobiliyatlarini realizatsiyasini anglatadi va shu orqali idrok etiladi” deb ta’kidlagan.

Aristotel beshta sezgi – ko‘rish, eshitish, hid bilish, tatib ko‘rish va tana orqali sezishni farqlagan, ular yordamida insonlar obyektlarning shaklini idrok qilishini, biroq ularning mohiyatiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’sir qilmasligini asoslagan. Shu ma’noda, Aristotel idrokni faol jarayon deb hisoblagan va sezgi taassurotlarini mazmunli tajribaga aylantirishda ruhning vositachilik qilishi zarurligini ta’kidlagan. Bu nuqtai-nazar bizning fikrimizcha, idrokning mohiyati haqidagi keyingi olimlararo bahslar uchun falsafiy asos bo‘lib xizmat qilgan. Masalan, tadqiqotchi olim J.Sleyki o‘z tadqiqotlarida Aristotel uchun idrok nafaqat moddiyning inson tanasiga ta’siri, balki ushbu ta’sirning murakkab falsafiy jarayon sifatida tushunilishini ham ta’kidlaydi. Uning fikricha, idrok bu “shunday jarayonki, unda idrok etilgan ob’ekt o‘zini idrok etgan predmetni “xuddi o‘zidek holatga” [Slakey, 1961, p.473] keltiradi. Shuningdek, Aristotel fikricha, idrokning boshlanishi tashqi ob’ektlarning rang, ovoz yoki tashqi ta’sir kabi xususiyatlarning muhit orqali sezgi organlariga ta’sir qilishidir. Masalan, yorug‘lik ko‘rish uchun ko‘zdagi shaffof muhit bilan o‘zaro ta’sirlashadi, ovoz esa havo to‘lqinlari orqali quloqni ta’sirga keltiradi. Sleyki ta’kidlaganidek, “ushbu jarayon oddiy mexanik reaksiya bo‘lib qolmay, balki sezgi organlari orqali obektning “shakli”ni qabul qilish va uni moddiy jihatdan o‘zgartirmasdan idrok qilish jarayonidir” [Slakey, 1961, p.473].

Aristotel idrokni tushuntirishda “o‘rtacha holat” (mesotes)ni ishlab chiqqan. Uning fikricha, sezgi organlari o‘z imkoniyatlari doirasidagi marginal holatlar, masalan, yorug‘lik va qorong‘ilik, issiq va sovuq, qo‘pol va silliq kabi xususiyatlarni farqlashda muvozanatni saqlaydi. Masalan, teginish sezgisi issiqlik yoki sovuqlikni samarali idrok qilish uchun haddan tashqari issiq yoki sovuq bo‘lishi mumkin emas. Ushbu muvozanat sezgi organining tashqi stimullarga

moslashishi va ularga javob berish imkonini beradi. Bizning fikrimizcha, ushbu g'oya, umumiy ma'noda, inson idrokining fiziologik cheklovlari va moslashuvchan tabiati haqida chuqur mulohaza yuritishga undaydi, shunday ekan, har qanday sezgi faqat kuchli ta'sir orqali emas, balki nozik moslashuv va ongli tahlil orqali to'liq ishlaydi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Aristotel idrokning fiziologik va kognitiv jihatlarini ajratishda ruh tushunchasiga alohida e'tibor qaratgan.

Sezgi organlarida sodir bo'ladigan jismoniy o'zgarishlar zarur bo'lsa-da, ular bu o'zgarishlarni ma'noli tajribaga aylantirish uchun ruhiy jarayonlarga xizmat qiladi. Bizning fikrimizcha, Aristotel jismoniy va ruhiy jarayonlarni bir-biridan ajratib qo'ymagan, aksincha, ularni birlashtirgan va idrokni moddiy hamda intellektual jarayon sifatida ta'riflagan. Bunday qarash bilan Aristotel idrokni faqat fiziologik jarayon sifatida emas, balki ruh va sezgi organlari o'rtasidagi murakkab aloqalar tizimi sifatida tushunganidan dalolat beradi. Aristotel idrokni ob'ektning sezgi organlariga ta'siridan kelib chiqadigan «o'zgarish» yoki «ta'sirlanish» jarayoni sifatida sezgilarni bilishning birinchi va eng muhim bosqichi sifatida ta'riflagan.

U rang, tovush, hid va boshqa sezgi obektlari faqat muhit orqali sezgi organlariga ta'sir o'tkazishini ta'kidlagan. Bu fikrda muhitning shaffoflik yoki sezuvchanlik darajasi idrok jarayonining sifatiga bevosita ta'sir qilishi qayd etiladi. Masalan, rang ko'zga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qilmaydi, aksincha u havo yoki suv kabi shaffof muhit orqali ta'sir etadi. Aristotelning «Bu faqatgina ular vosita orqali idrok etsalar mumkin bo'ladi, bunda vosita idrok etilayotgan obekt tomonidan ta'sir qilinishi kerak, idrok etayotgan hayvonga esa vosita ta'sir ko'rsatishi zarur» degan fikrida bu jarayonda sezgi organlari obyektning moddiy emas, balki shakliy sifatlarini qabul qiladi.

Aristotelning bu qarashlari zamonaviy idrok haqidagi tushunchalarga ham muhim falsafiy asos yaratadi, bu idrokni chuqurroq falsafiy, psixologik va hatto metafizik nuqtai nazardan tahlil qilishga yo'l ochadi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Aristotelning sezgi organlari faolligiga oid qarashlari, masalan, ularning faqat qabul qiluvchi emas, balki o'z shaklini obyektning shakliga moslashtiruvchi jarayon sifatida tasavvur qilinishi, O'rta asrlarda yangicha talqin qilingan.

Ya'ni "Aristotelning tabiat falsafasida faol va nafaol kuchlar jismoniy o'zgarishlarning eng asosiy tushuntiruvchi omillaridir. Ularga qo'shimcha ravishda shularni aytish mumkinki, bu kuchlarning bir-birlari bilan ta'sirlanishi uchun tashqi to'siqlar mavjud emas, ular doimo bir-biri bilan ta'sirlanishda bo'ladi. Ushbu modelning ko'rish qobiliyatiga nisbatan qo'llanishi bilan bog'liq muammo shundaki, bunda ko'riluvchi narsa ko'rish qobiliyati bilan bevosita kontaktda bo'lmaydi" [Knuuttila, 2008, p.25]. Aristotelning «ta'sirsiz ta'sir» g'oyasi, keyinchalik boshqa faylasuflar Plotin, Ibn Sino, Foma Akvinskiy, va hatto Rene Dekart tomonidan ham muayyan darajada ta'riflangan, uning "o'rtacha holat" haqidagi g'oyasi metodologik ahamiyat kasb etadi, unga ko'ra sezgi organi chegaraviy ta'sirlarda "o'chib qolmasdan", [Aristotel, 2015, c.67] muvozanatda qabul qilishi zarur, bu esa idrokning fiziologik cheklovlari bilan birga, uning

tanlovchanligi va me'yoriyligi, normativ tartibini namoyon etadi demak, tafakkur uslubi ham aynan shu me'yorlarga idrokga oid moslashuvlar negizida paydo bo'ladi.

O'rta asr falsafasida idrok tafakkur uslubining ontologik poydevori sifatida mutlaqo yangi ma'no kasb etgan. Agar antik an'anada idrok asosan borliqning shakliy xususiyatlarini qabul qilish orqali bilishning boshlang'ich bosqichi sifatida talqin qilingan bo'lsa, o'rta asr tafakkurida u inson ongini moddiy va ma'naviy borliq o'rtasida bog'lab turuvchi metafizik vosita sifatida namoyon bo'lgan. Bu davrda idrok nafaqat bilishning psixofiziologik bosqichi, balki inson tafakkuri qanday yo'sinda shakllanishi va haqiqatga qanday yo'l bilan yetishi masalasini hal qiluvchi ontologik asosga aylangan.

O'rta asrlarda G'arb tafakkurida idrokka oid qarashlarni Avliyo Avgustin, Foma Akvinskiy kabi faylasuflar rivojlantirgan. Ular idrok jarayonini ilohiy qarashlar bilan uyg'unlashtirishga harakat qilganligi, chunki bu davrda idrok faqat tabiiy jarayon sifatida emas, balki insonni moddiy va ruhiy olam bilan bog'lovchi ilohiy in'om sifatida qaralgan. Xususan, faylasuf F.Akvinskiyning qarashlarida sezgilar va aql o'rtasidagi uyg'unlik shundan iboratki, sezgilar barcha insoniy bilimlarning asosi bo'lsa-da, aql bu idrokni yanada yuksak darajaga ko'tarilishi o'z ifodasini topgan. Foma Akvinskiy ijodida idrok Aristotel merosini xristian metafizikasi bilan uyg'unlashtirgan holda chuqur ishlab chiqilgan. Uning fikricha, sezgilar orqali qabul qilinadigan "shakl" moddiy tarzda emas, balki ma'naviy tarzda idrok etiladi, ya'ni Foma Akvinskiy fikricha "hissiyot va intellekt narsalar shaklini moddiy emas, balki ma'naviy qabul qiladi, chunki bilinuvchi narsalar biluvchining alohida intensional borlig'ida namoyon bo'ladi". F.Akvinskiy idrok jarayonlarini "Sezgilar va intellekt narsalar shaklini moddiy tarzda emas, ma'naviy tarzda idrok etadi va bunga muayyan ko'rinishdagi intensional mavjudlik sabab bo'ladi" [Foma Akvinskiy, 2002] deb ta'riflagan. Bizning fikrimizcha, moddiy va metafizik dunyo o'rtasidagi ushbu ikkilik o'rta asr falsafasining ajralmas xususiyati bo'lib, idrok haqidagi tasavvurlarni yanada boyitadi.

Foma Akvinskiy Aristotelning sezgi haqidagi fikrlarini xristian teologiyasi bilan uyg'unlashtirib, idrokni nafaqat tabiiy jarayon, balki ilohiy mohiyat sifatida ko'rsatgan. Bu esa o'rta asr faylasuflari Aristotelning idrok nazariyasini ilohiy va falsafiy qirralar bilan boyishiga olib kelgan. Masalan, F.Akvinskiy sezgilarning ruhiy va jismoniy jihatlari o'rtasidagi aloqani tadqiq qilganligi va sezgi organlari orqali qabul qilingan ma'lumotlarning ong va ruh tomonidan tushunilishi haqida fikr yuritgan. Unga ko'ra, sezgilar orqali inson tabiatning "belgilari"ni qabul qiladi va bu belgilar aql orqali tahlil qilinadi.

Bu g'oya idrokni jismoniy ta'sirlarning shunchaki natijasi sifatida emas, balki ongda borliqning ma'naviy reprezentatsiyasi sifatida talqin qilishni taqozo etadi. Demak, idrok insonni borliqqa mexanik tarzda bog'lamaydi, balki uni ma'naviy-ontologik munosabatga kiritadi, shu nuqtada idrok tafakkur uslubining poydevoriga aylanadi, inson borliqni qanday "ma'naviyashtirib" qabul qilsa, uning fikrlash uslubi ham shunga muvofiq tartiblashadi. Foma Akvinskiy ta'limotida tashqi sezgilar ko'rish, eshitish bilan bir qatorda ichki tuyg'ular

alohida ahamiyat kasb etadi. Uning fikricha, aynan ichki hislar orqali tashqi idrok natijalari qayta ishlanadi, umumlashtiriladi va aql uchun mos shaklga keltiriladi. Bu jarayon tafakkur uslubining ontologik asosini yaratadi, ya'ni tashqi borliqning sezgilar orqali idrok etilishi ichki hislarda qayta ishlanishi intellekt orqali ma'no yaratadi. Shu ma'noda, idrok nafaqat bilishning birinchi bosqichi, balki tafakkurning mantiqiy tuzilishini shakllantiradi. Foma Akvinskiyning fikricha, aql hech qachon sezgilardan mutlaqo mustaqil holda ishlamaydi, ya'ni "insonning bilishida intellekt doim xissiy idrokga tayanadi".

Bizning fikrimizcha, bu g'oya o'rta asr tafakkurida idrokning ontologik ahamiyatini yanada mustahkamlaydi, ya'ni inson tafakkur uslubi osmondan "tayyor holda" berilmaydi, balki u faqat idrok orqali borliq bilan munosabatlar asosida shakllanadi. Bizning fikrimizcha, o'rta asr G'arb falsafasida Avgustin Avreliy ham idrok masalasiga ichki tajriba nuqtai nazaridan yaqinlashadi. U tashqi idrokdan ko'ra, ichki idrokni haqiqatga yaqinroq deb hisoblagan va "tashqariga chiqma, o'zingning ichingga kir, insonning ichki borlig'ida haqiqat yashiringan", deb ta'kidlagan. Bizning fikrimizcha, bu g'oyada idrok insonning ichki ong dunyosi bilan bog'lanib, tafakkur uslubini introspektiv, ma'naviy va reflektiv xarakterga ega qiladi. Demak, idrok tashqi dunyoga yoki ichki ongga qanday yo'naltirilsa, tafakkur uslubi ham shunga mos ravishda shakllanadi.

Aristotelning idrokka oid asosiy qarashlari va ularning o'rta asrlardagi talqinlari inson bilish faoliyatining dinamikligini, sezgi organlari va aqlning o'zaro bog'liqligini, shuningdek, idrokning insonni nafaqat moddiy dunyo bilan, balki metafizik haqiqat bilan bog'laydigan ko'priki ekanligini ko'rsatadi. Bu jarayonning har bir bosqichi insonning dunyoni chuqur anglashida muhim ahamiyatga ega va falsafiy tafakkurning markazida turadi.

O'rta asr Sharq falsafasida esa, Aristotelning idrok haqidagi qarashlari xristianlik, islom va yahudiylik teologiyalari doirasida yangi shakllarga ega bo'lgan. Masalan, Sharq o'rta asr falsafasida, ayniqsa Ibn Sino ta'limotida idrok masalasi yanada keng qamrovli ontologik mazmun kasb etgan. U sezgilarni ruhiy kuchlar tizimiga kiritib, idrokni bilishning faol jarayoni sifatida talqin qilgan. Abu Ali ibn Sino Aristotelning idrok haqidagi fikrlarini rivojlantirib, sezgi tajribalarini aql va ruh faoliyati bilan birga tushunishga harakat qilgan. U sezgilarni inson ruhining tabiatni bilishdagi eng muhim vositasi sifatida ko'rganligi va idrokni faqat jismoniy jarayon emas, balki ruhiy ma'rifat yo'li deb talqin qilganligini ta'kidlash lozim. Ibn Sinoning fikricha, tashqi sezgilardan kelgan ma'lumotlar ichki hislar orqali qayta ishlanib, aql uchun moslashtiriladi, ya'ni «Hissiy idrok faol aql ning zaruriy shartidir» [Ibn Sino, 1980, c.78]. Bu qarash idrokni tafakkurning ontologik asosi sifatida yanada mustahkamlaydi, chunki tafakkur uslubi sezgilersiz ishlamaydi, balki ular orqali real borliq bilan bog'lanadi.

Shuningdek, o'rta asrda yashagan yahudiy faylasufi Moshe Maimonid Aristotelning idrok haqidagi g'oyalarini yahudiy ilohiy falsafasi bilan bog'lab, idrokni nafaqat dunyoni tushunish, balki Xudoning mavjudligini bilishning muhim vositasi deb bilgan. Chunki, faylasuf M.Maymonid fikricha, «payg'ambarlik bu fikrlashning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri bo'lib, unda idrok ilohiy ta'sirning bir

ko‘rinishi sifatida tushuniladi. Bu qarash tushunish va fikrlashning ilohiy ahamiyatiga urg‘u berishi bilan ajralib turadi» [Maimonides, 2002, p. 62].

Bu yondashuv Aristotelning idrok nazariyasiga o‘rta asrda yangi ma’no bag‘ishlab, uning falsafiy ta’sirini kengaytirdi. Shuningdek, ushbu yondashuvning muhim jihati shundaki, u fikrlash va idrokni shunchaki insoniy imkoniyat emas, balki ilohiy potensialga ega faoliyat sifatida tushunishga olib keladi. Ya’ni, inson tafakkuri orqali nafaqat borliqni, balki ilohiy haqiqatni ham anglash mumkin degan g‘oyani shakllanishiga olib keladi. Shunday qilib, Aristotelcha yondashuv inson idrokini nafaqat bilish vositasi, balki ruhning tabiat bilan suhbatga kirish usuli deb talqin qilish mumkin. Bu esa nazarimizda har bir ko‘rish, eshitish yoki sezish ortida mazmunli va ma’naviy faoliyat yotishini anglatadi. Bizning fikrimizcha, o‘rta asrlarda shakllangan mazkur g‘oyalar bugungi kunda ham katta nazariy ahamiyatga ega.

Zamonaviy kognitiv fanlar, fenomenologiya va ijtimoiy epistemologiya idrokni shunchaki sensor qabul emas, balki ma’no yaratish mexanizmi sifatida qayta baholamoqda. Masalan, fenomenologiya vakillari Gusserl, Merlo-Ponti ijodida idrok dunyoning inson uchun qanday “ochilishi”ni belgilaydi, kognitiv psixologiyada esa, idrok tafakkur strategiyalari va qaror qabul qilish uslublarini shakllantiruvchi omil sifatida o‘rganilmoqda. Raqamli sivilizatsiya sharoitida esa idrokning tafakkur uslubiga ta’siri yanada kuchaydi, klipli tafakkur, vizual dominantlik, algoritmik saralash kabi hodisalar insonning dunyoni qanday qabul qilishi va qanday fikrlashiga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu nuqtai nazardan, o‘rta asrlarda ilgari surilgan “idrok tafakkur uslubining ontologik poydevori” degan g‘oya zamonaviy ilmiy tahlillar uchun ham mustahkam falsafiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Yangi davrda idrokning tafakkur uslubini belgilashi masalasi ratsionalizm empirizmning ziddiyati orqali yanada keskinlashadi.

Masalan, Rene Dekart o‘zining sezgilarga nisbatan radikal shubha metodining ustivorligiga tayanib “tuyg‘ular xech qachon aldamaydi” [Dekart R, 2005, p.90] degan fikri bilan idrokni aqliy tekshiruvdan o‘tkazish talabini qo‘yadi, bu tafakkur uslubining tanqidiy-analitik tipini shakllantiradi, shu nuqtai nazardan idrokdan tafakkurga o‘tadigan ma’lumot tayyor haqiqat emas, balki tekshirilishi shart bo‘lgan reprezentatsiyadir degan xulosaga kelish mumkin. Lekin Dekartning bu shubhasi idrokni inkor etmaydi, balki aksincha, idrok va tafakkur munosabatini qayta tartiblashtiradi, tafakkur uslubi endi “ko‘rish”ga emas, “asoslash”ga suyanadi, ya’ni ong borliqni idrokda berilganlikdagi kabi dalillanganlik rejimida qabul qiladi. Ya’ni, Dekart g‘oyasining muhim jihati shundaki, idrokning cheklanganligi tafakkur uslubini o‘z-o‘zini nazorat qilishga tanqidiy ratsionallikni shakllantirishga majbur qiladi. Demak, Dekart idrokni rad etmaydi, aksincha, idrokning “aldamchi” bo‘lishi mumkinligi tafakkur uslubiga metodologik intizom kiritadi deb hisoblaydi.

Empirizm da esa, aksincha, tafakkur uslubining poydevori idrok tajriba asosiga qaytariladi, Jon Lokk inson ongini «bo‘sh qog‘oz» “tabula rasa” [J.Lokk, 2015, p.78] deb talqin qilib, g‘oyalar tashqi sezgiga tayanuvchi tajriba va ichki kuzatuv bilan bog‘liq refleksiya dan kelib chiqishini ta’kidlagan, bu g‘oyaga ko‘ra

idrok tafakkur uslubining “moddiy asosi”gina emas, balki uning tarkibiy qonuniyatiga aylanadi, ya’ni unga ko‘ra ong nimaga o‘xshab ishlaydi tajriba qanday iz qoldirsa, shunday ishlaydi. Ingliz faylasufi Jon Lokkning «Inson aqli haqida ta’limot» asarida aytilganidek, barcha g‘oyalar va tushunchalar tajriba orqali shakllanadi [J.Lokk, 2015, p. 78].

U tashqi sezgi va ichki kuzatuvlarni bilishning asosiy manbalari sifatida ta’kidlagan. Bu yondashuvga ko‘ra, tashqi sezgi obektlar haqidagi bilimni beradi, ichki kuzatuv esa tafakkur jarayonlarini tahlil qilish imkonini yaratadi. Xususan, faylasufning bu qarashlari, ayniqsa, XVIII asrning ma’rifatchilik davrida katta ahamiyat kasb etgan. Ushbu fikrni uzviy davomi sifatida ingliz faylasufi J.Berkli sezgi tajribasi yagona haqiqat ekanligini va obyektlarning mavjudligi faqat ular idrok qilinganda haqiqiy bo‘lishini aytgan.

Ushbu yondashuv sezgilarning inson bilish faoliyatidagi markaziy rolini yana bir bor tasdiqladi, biroq obektiv haqiqat haqidagi an’anaviy qarashlarni qayta ko‘rib chiqishga olib keldi. Chunki, shu paytgacha qarashlarda endigina yangilik kiritilgan bo‘lib, qarashlar qayta ko‘rib chiqilishga, yangi davrning yangicha g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirishga muhtoj bo‘lganligini ta’kidlash mumkin. Jorj Berkli “mavjud bo‘lish idrok qilinishdir” [Berkli, 2016, p.77] tamoyili orqali idrokni ontologik maqom darajasiga ko‘taradi, borliqning “barqarorligi” ham inson idroki va ruhiy tajribasi bilan bog‘lanadi, bu esa tafakkur uslubida sub’ektiv-germenevtik yo‘nalishni kuchaytiradi. Har ikki holatda ham idrok “ma’lumot” emas, balki tafakkur uslubini belgilovchi metodologik qadriyatga aylanadi, inson nimani haqiqiy deb bilishi, qanday dalilni ishonchli deb qabul qilishi, reallikni qay tarzda “tuzishi” bularning barchasi idrok-tajribaga munosabat orqali aniqlanadi.

Immanuel Kant ushbu tortishuvni transsendental yechim bilan birlashtiradi, uning fikricha tajriba bilimga “xom ashyo” bersa, uni bilimga aylantirish ongning aprior shakllari va kategoriyalari orqali amalga oshadi, shu ma’noda idrok tafakkurning passiv “qabuli” emas, balki aql bilan birga ishlaydigan faol sintezdir. Kantning “Ma’nosiz fikr sarob, tushunchasiz idrok ko‘r,” degan qonuni tafakkur uslubini uchun hal qiluvchi mezon bo‘lib, unda idrok va tushuncha bir-birisiz mavjud bo‘la olmasligi namoyon bo‘ladi, demak, tafakkur uslubida fikr idrokda berilgan tushunchalarning shakllanishi orqali paydo bo‘ladi. Bu yerda idrok tafakkur uslubining ontologik poydevori ekanligi yanada aniq namoyon bo‘ladi, ya’ni inson borliqni “o‘z-o‘zidan” emas, balki makon, zamon, sababiyat kabi shakllar orqali idrok qiladi, demak, tafakkur uslubini ham aynan shu shakllarga muvofiq rivojlanadi Kantning pozitsiyasi idrokni passiv qabul qilishdan chiqarib, ongning faol “tashkil etuvchi” quvvati bilan bog‘laydi bu esa ilmiy ratsionallik, metod va tanqidiy tafakkurning falsafiy asosini mustahkamlaydi.

Aristoteldan Kantgacha bo‘lgan aloqadorlik idrokni sezgilar va tafakkur o‘rtasidagi murakkab o‘zaro aloqani aks ettiruvchi jarayon ekanini namoyish qiladi. Har bir falsafiy qarash epistemologiya, metafizika va fan sohasidagi kengroq madaniy va intellektual oqimlarni aks ettiradi. Sezgi ma’lumotlari va talqin jarayonlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik falsafiy tadqiqotlarning markazi bo‘lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, idrokning falsafiy ahamiyatini uning tashqi

va ichki olamlar o'rtasidagi bog'lovchilik xossasi bilan tushuntirish mumkin. Agar sezgilar orqali olinadigan ma'lumotlar talqin qilinmasa, ya'ni interpretatsiya jarayoni bilan qayta ishlanmasa, obektni anglashning imkoni yo'q. Shunga ko'ra, idrok bilan nafaqat atrof-muhitni anglash, balki undan samarali foydalanish, muammolarga javob berish va mazmunli aloqalar o'rnatish mumkin. Shuning uchun, idrok inson tajribasining muhim va ajralmas qismi sifatida qadimdan falsafiy tadqiqotlar obekti sifatida ko'rib kelingan.

Bizning fikrimizcha, zamonaviy falsafada idrok masalasi, ayniqsa, fenomenologiyada, tafakkur uslubining sub'ektiv-ta'xribaviy asoslarini ochishga xizmat qildi. Gusserl va Merlo-Ponti ta'limotida idrok "tayyor ob'ekt"ni ko'rish emas, balki dunyoning inson uchun qanday paydo bo'lishini tahlil qilishdir, shu bois idrok ma'no tuzilishidagi birinchi qatlamidir [Gusserl, 2008], bizning fikrimizcha, bu qarash tafakkur uslubini "ob'ektiv tasvir"dan ko'ra "ma'no paydo bo'lishi" jarayoniga yaqinlashtiradi, insonning ilmiy uslubi ham, badiiy uslubi ham, kundalik tafakkuri ham idrokda ma'no tuzilishiga suyangan holda shakllanadi.

Zamonaviy analitik falsafa va kognitiv ilmiy yondashuvlarda idrok kognitiv tizimlarning integrativ funksiyasi sifatida qaraladi, inson turli modal ma'lumotlarni (ko'rish, eshitish, hid, ta'm) bir butun tajribaga aylantiradi; bu butunlik esa ishonch, dalil, qaror va harakatni shakllantiradi. Bu yerda idrok tafakkurning epistemik tartibga soluvchisi, qaysi ma'lumot "ishonch"ga, qaysisi "gipoteza"ga, qaysisi "shubha"ga aylanishini idrokning qayta ishlash mexanizmi hal qiladi. Masalan, psixologiyada George Mather idrokni ko'p qavatli tizim sifatida ko'rib, pastki birlamchi qayta ishlash va yuqoritalqin, tajriba va madaniy jarayonlar bilan bog'liq bosqichlarni farqlagan, bu farq tafakkur uslubining ham ikki qatlamli ekanini namoyon etadi, bir tomonda neyrofiziologik cheklovlar, ikkinchi tomonda ma'no, ta'lim, madaniyat va ijtimoiy tajriba amal qiladi.

Demak, tafakkur uslubi idrokning biologik asosiga tikilgan, biroq ijtimoiy-tarixiy ma'no bilan "ko'tarilgan" konstruksiyadir. Tadqiqotchi olim G.Mather fikricha, idrok inson ongi va miyasining adaptiv funksiyasini ham o'zida namoyon qiladi. Bu bilan shu nazarda tutilganki, inson muhitga moslashishi va unda samarali operatsiya bajarishida idrok misli ko'rilmagan darajada muhim rol o'ynaydi. Tabiiyki, bu idrokning inson amaliy hayotidagi ahamiyatini namoyon etadi. Bizning fikrimizcha, idrok inson ongining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida nafaqat tashqi muhitda mavjud oddiy signallarni qabul qilish va talqin qilish bilan bog'liq jarayon, balki bu oxir oqibatda insonning olamni anglashida muhim rol o'ynaydi. Amerikalik taniqli zamonaviy analitik faylasuf Jon Hayl, asosan ong falsafasi, metafizika, va bilish nazariyasi sohalarida qator tadqiqotlarni amalga oshirgan.

Uning fikricha, inson sezgilar orqali olamni anglaydi va bu idrok ishtirok etuvchi muhim va murakkab jarayon va unda inson tashqi muhitdan turli tuman arbitrar va ko'p qirrali ma'nolar qabul qilib oladi. Masalan, inson tomonidan hid, ta'm va ko'rish ma'lumotlari umumlashtirilishi kerak. Bunda idrokning rolini, uning integratsiyalash qobiliyatini tushunish muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga,

J.Hayl uchun idrok bu inson ongli faoliyatining epistemologiya bilan bog'liq eng muhim qismidir. Ya'ni, bunda idrok nafaqat sezgi ma'lumotlarini to'plash, balki ularni tahrirlash, saralash va epistemologik nuqtai-nazardan ahamiyatli bo'laklarga ajratish bilan ham bog'liq jarayondir. Inson ko'rish orqali ranglarni anglaydi, lekin bu degani ko'rilgan narsa shunchaki insonning muhitdagi nurlarni shunchaki jismonan ko'z orqali qabul qildi degani emas. Idrokning bundagi roli o'sha stimullarni madaniy va kontekstual nuqtai-nazardan ham tahlil qilish va shu orqali ma'no bo'laklarga aylantira olish bilan tushuntiriladi.

Darhaqiqat, J.Hayl qarashlarida idrok deganda kishi o'z sezgilari bilan nima qilishini va shu sezgilar paytida atrofida nimalar sodir bo'layotganini anglay olishi, uni ongida aks ettirishi bilan bog'liq atama tushuniladi. Nimanidir idrok etish uni u yoki bu tarzda sezish "uni ko'rish, eshitish, totib ko'rish, yoki hidlashdir. Sezgilar haqidagi qarashlar, insonning sezgilar moduslari nimani anglatishi to'g'risidagi savollarimiz, shunday ekan idrok haqida ilgari suriluvchi har qanday nazariyada markaziy ahamiyatga ega bo'ladi" [Macpherson F, 2018], uning qarashlarida idrok bog'lovchi sifatida nafaqat tashqi olamni inson ongida aks ettiradi, balki uni tushunishga ham xizmat qiladi. Masalan, atrof muhitda joylashgan bir obekt turli insonlar ongida turlicha taasurotlarni yuzaga keltirishi mumkin va bu har bir inson idrokining turlichaligi bilan bog'liq.

Bu esa idrok inson ongi va miya faoliyatining integratsiya mexanizmi ekanini namoyish qiladi. Idrokning sezgilar va talqin orasidagi vositachi ekanini faylasuf J.Hayl "sensor tizimlar" degan ibora bilan tushuntiradi. Bunday sensor tizimlar nafaqat ma'lumotlarni qabul qilish uchun, balki ularni boshqa modalliklar bilan, boshqa moduslar bilan bog'lash uchun ham javobgar. Aynan shunday integratsiya orqali inson dunyoni yaxlit bir jarayon sifatida idrok etadi va aks ettiradi. Masalan, shu sabab ham biz kimningdir tovushini uning yuz qiyofasi bilan, yoki qandaydir bir meva ta'mini uning hidi bilan, yoki shakli bilan bog'laymiz. Bu esa bizning fikrimizcha, idrokning inson tafakkuri va madaniyati bilan bog'liq alohida o'rnini ko'rsatadi. Idrok nafaqat fiziologik, balki, tabiiyki, psixologik ahamiyatga ham ega jarayondir. Shuningdek, idrok sezgilar va talqin orasidagi haqiqiy ko'prik sifatida namoyon bo'ladi va u insonning dunyoni tushunish jarayoniga katta ta'sir qiladi. Idrok inson ongining eng muhim va murakkab jarayonlaridan biri va tashqi dunyo hamda ichki kognitiv jarayonlari orasida bog'lovchidir. Idrok orqali inson o'z atrofidagi muhitni nafaqat his qiladi, balki uni ma'no bilan boyitadi va tushunadi.

Xususan, Jon Haylning "Ko'rish bu ishonishdir" maqolasida idrok jarayoni faqat fiziologik stimullarning qabul qilinishi emas, balki ushbu ma'lumotlarning konseptual asosda shaklga solish deb baholagan. Uning fikricha, idrok nafaqat sezgi a'zolari orqali olingan ma'lumotlarni to'playdi, balki ularni ong orqali talqin qiladi va bu orqali inson ongini dunyoni anglashga yo'naltiradi. Bu fikr vizual idrokning mohiyatini tasvirlaydi. Falsafada xususan, epistemologiyada ko'rish yoki idrok ko'pincha bilishning asosi sifatida qaraladi. Kimnidir yoki nimanidir ko'rganimizda, odatda, bu holatga ishonch hosil qilamiz, bu esa bilimga da'vo qilish uchun asos bo'ladi.

Darhaqiqat, tadqiqotchi olim J.Hayl idrok jarayonini “epistemik” va “konseptual doiralar” tushunchalari orqali tahlil qiladi. Uning fikricha, idrokka asoslangan ishonchlar insonning bilimlariga va madaniy tajribalariga asoslangan. Masalan, bir xil ob’ektni kuzatgan ikki shaxsning idroki ular qabul qilgan bilim va tushunchalariga bog’liq bo’lib, ular turli talqin qilinishi mumkin. Bu masalani tushuntirish uchun faylasuf J.Hayl Iogann Kepler va Tixo Brage idrok borasidagi falsafiy qarashlaridagi farqlarni keltiradi. Masalan, I.Kepler Yerni harakatda deb bilsa, T.Brage esa Yerni harakatsiz deb hisoblagan. Bu yerda ikki olim kuzatayotgan hodisa bitta, lekin ularning nimani kuzatayotganlari haqidagi fikrlari ikki xil ekanini ta’kidlaydi.

Tadqiqotchi J.Hayl idrokni “epistemik” va “epistemik bo’lmagan” turlarga ajratib, har birining o’ziga xos falsafiy ahamiyatini ochib bergan. Epistemik idrokda inson sezgilari orqali olingan ma’lumotlarga ishonadi va ularga ma’no beradi. Epistemik bo’lmagan idrok esa bu jarayonga o’z hissasini qo’shuvchi “qayta ishlanmagan” ma’lumotlarni qabul qilishga asoslangan. Bu sezgilarning xotirasiz yoki talqinsiz qabul qilinishidir. Ammo uning nazarida, har qanday idrok shakli e’tiqod shakllanishiga olib keladi.

Ya’ni, biz biror narsani ko’rsak, uni nafaqat sezamiz, balki bu sezgi asosida ma’lum xulosalar shakllantiramiz. Masalan, biror narsa qizil ko’rinsa-da, kuzatuvchi uning aslida boshqa rangda ekanligiga ishonishi mumkin. Bu esa idrokning talqinga bog’liq ekanligini ko’rsatadi. Bu orqali idrokning murakkabligi, uni faqat fiziologik jarayon sifatida tushunib bo’lmaslini ta’kidlaydi.

Bizning fikrimizcha, bu misol idrokning faqat ko’z bilan ko’rish emas, balki ong bilan tushunish ekanligini aniq ko’rsatadi. Inson narsa yoki hodisani qanday ko’rishi, balki kuzatuvchining bilim darajasi, tajribasi, taxminlari va hatto kayfiyatiga ham bog’liq. Bu fikr idrokni faqat fiziologik emas, balki psixologik va hatto falsafiy jarayon sifatida ko’rishga undaydi. Shu bois, har bir insonning dunyoni ko’rishi o’ziga xos, individual va ko’pincha nisbiy ahamiyat kasb etadi. J.Hayl o’z tadqiqotlarida idrokning e’tiqodlar bilan uzviy bog’liq ekanligi ko’rsatadi. Inson atrof-muhitni shunchaki kuzatib qolmasdan, balki bu kuzatuvlar asosida o’z ishonchlarini ham shakllantiradi.

Bunda idrokning ikki asosiy bosqichi mavjudligini ta’kidlaydi, ya’ni, birinchi bosqich sezgilar darajasidagi idrok – fiziologik stimullarni qabul qilish va dastlabki qayta ishlash jarayoni bo’lsa, ikkinchi bosqich tushuncha darajasidagi idrok sezgi orqali qabul qilingan ma’lumotlarni ma’noga ega bo’lgan tizimli bilimga aylantirish jarayonidir. Bizning fikrimizcha, ushbu bosqichlar orqali inson dunyoni yanada yaxlitroq va batafsilroq anglashi mumkin. Masalan, biror ob’ektni kuzatib, uning shaklini va rangini anglash idrok jarayonining birinchi bosqichi deydigan bo’lsak, uning nima ekanligini tushunish va undan foydalanish ikkinchi bosqichi deyish mumkin. J.Haylning fikricha, idrokni faqat biologik jarayon sifatida ko’rib chiqishning o’zi kamlik qiladi. Idrok insonning madaniyati, ijtimoiy munosabatlari va tarixiy tajribasi bilan chambarchas bog’liq.

Chunki, qadimiy madaniyatlarda ranglarning diniy va emotsional ma’nolari bo’lganidek, zamonaviy jamiyatlarda ranglar ko’pincha maishiy va texnologik

ma'nolar tashiydi. Bu madaniy farqlar idrokning universalligi va o'ziga xosligini namoyish qiladi. Bizning fikrimizcha, bu holat idrokning nafaqat fiziologik va psixologik, balki ijtimoiy-falsafiy jarayon ekanligini yaqqol tasdiqlaydi.

Rivojlanib borayotgan hozirgi davrda idrok jarayonini vizual va raqamli texnologiyalar vositasida qo'llanilishi bilan qiziqarli va dolzarb tadqiqotlar sohasiga aylantirmoqda. Masalan, sun'iy intellekt texnologiyalari, vizual ma'lumotlar ustida qayta ishlash texnologiyalari, xususan ChatGPT va Midjourney kabi platformalar va ularda rasmlarga turlicha ishlov berish kabi ko'rinishlari olimlar tomonidan idrokning yangi qirralarini o'rganishga undamoqda. Shuningdek, bu texnologiyalar orqali yaratilgan vizual yoki matnli mahsulotlar inson idrokiga o'xshash tarzda ijodiy va sub'ektiv bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. Bu esa shuni anglatadi, idrok faqat ko'rish yoki eshitish emas, balki ma'no izlash va yaratish jarayonini anglatadi. Endi bu jarayon nafaqat inson ongida, balki algoritmlar orqali ham yuzaga kelmoqda. Shu jihatdan, sun'iy intellekt faqat vosita emas, balki idrokning yangi shaklini tushunish uchun bir oynaga aylanmoqda. Bu bizni nafaqat texnologiyalarga, balki o'zimizga – ongimiz va idrokimizning chegaralariga qayta nazar tashlashga undaydi.

Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasidagi rus tilli falsafiy maktablarida ham ong, tajriba va idrok masalasi keng muhokama qilinadi. Masalan, Qozog'iston falsafa muhitida A.N. Nisanbaev atrofida shakllangan ilmiy an'anada "ong" va "bilish" [Nisanbayev A, 2019]ni zamonaviy jamiyatda tushunish masalasi ko'tarilib, insonning dunyoni qanday qabul qilishi, ya'ni ijtimoiy ongdagi idrokni modernizatsiya, identiklik va ma'naviy transformatsiya jarayonlari bilan bog'lanadi, bu idrokning faqat individual emas, balki ijtimoiy-ontologik o'lchovi borligini namoyon etadi. Ozarbayjondagi falsafiy tadqiqotlarda ham falsafaning markaziy mavzusi "ong til va tajribaga alohida e'tibor qaratiladi, bu esa idrokni ong va tajriba tutashuvi sifatida tasavvur qilishga metodologik asos bo'ladi" [Mamedzade, 2019].

Qirg'izistondagi o'quv-ilmiy an'analarda ham ong, bilish va tajriba muammolari falsafiy tadqiqotlar doirasida alohida bo'lim sifatida o'rganilib, idrokni bilish jarayonining boshlang'ich bo'g'ini sifatida tushuntirishga harakat qilinmoqda amaliyoti shakllangan. Raqamli sivilizatsiya sharoitida idrokning tafakkur uslubiga ta'siri yangi keskinlik kasb etmoqda, sun'iy intellekt, vizual ma'lumotlarni qayta ishlash va raqamli mediamuhit insonning diqqat, obraz, ramz va ma'no bilan ishlash uslubini o'zgartirmoqda. Bu jarayonda idrok faqat "ko'rish" emas axborot oqimida ma'lumotlarni saralash, semantik tezkor qaror qabul qilish mexanizmiga aylanmoqda, demak, zamonaviy tafakkur uslubini idrokning texnologik vositalar orqali kengaygan muhitida qayta shakllanmoqda.

XULOSA

Jamiyatning taraqqiyoti tarixida idrok fiziologik qabul, kognitiv qayta ishlash, ma'no tuzish, ijtimoiy-tarixiy jarayondada mustahkamlanish bosqichlari birligi sifatida namoyon bo'lib, u doim inson tafakkur uslubining ontologik poydevori evazifasini bajargan Chunki ongning borliqqa nisbatan pozitsiyasini

shakl, mezon, dalil, ishonch, shubha, ma'no orqali aynan idrok belgilaydi. Shu sababli idrokni o'rganish faqat bilish nazariyasi uchun emas, balki tafakkur uslubining shakllanishi, metodologik chegaralari va insonning haqiqat bilan munosabatini anglash uchun ham fundamental ahamiyatga ega.

Zamonaviy falsafiy-epistemologik nuqtai nazardan idrokning tafakkur uslubi uchun ontologik ahamiyati quyidagicha umumlashadi, birinchidan idrok inson va borliq o'rtasidagi munosabatni real vaqtda tashkil qiladi, unda inson borliqqa faqat fikr orqali emas, avval idrok orqali kirishadi, ikkinchidan idrok tafakkurning diqqat, tanlov, moslashuv, me'yor kabi uslubiy me'yorlarini shakllantiradi, aynan shu me'yorlar keyin fikrlashning yo'nalishi, tezligi va dalillash uslubini belgilaydi, uchinchidan idrok borliqni ma'noli qilib beradi talqin qilish, ya'ni interpretatsiyasiz sezgi ma'lumoti neytral signal bo'lib qoladi, shuning uchun tafakkur uslubi idrok bergan ma'lumotlar talqinining qanday amal qilishini ham ifoda etadi

Idrok inson ongining tashqi dunyo bilan bevosita aloqasini ta'minlaydigan muhim bilish shaklidir. U nafaqat sezgi organlari orqali ma'lumotlarni qabul qilish, balki ushbu ma'lumotlarni ongli ravishda tartiblash, taqqoslash va tushunish jarayonini ham o'z ichiga oladi. Idrok orqali inson atrof-muhitdagi predmet va hodisalarni yaxlit holda qabul qiladi, bu esa bilimlarning shakllanishida poydevor bo'lib xizmat qiladi. Shunday ekan, idrok bilishning ilk va zaruriy bosqichi sifatida inson tafakkuri, dunyoqarashi va ongining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi.

BIBLIOGRAFIYA

1. Heidegger M. (1927). Sein und Zeit. – Tübingen: Max Niemeyer Verlag, – p.437.
2. Husserl E. (1913). Ideen zu einer reinen Phänomenologie. – Halle: Niemeyer, – p. 323.
3. Kant I. (1781). Kritik der reinen Vernunft. – Riga: Hartknoch, – p. 856.
4. Ильенков Э.В. (1977). Диалектика абстрактного и конкретного в научном познании. – Москва: Мысль, с. 287.
5. Лосев А.Ф. (1982). Форма, Стиль Выражение. – Москва: Искусство, – с.314.
6. Шермухамедов С. (2005). Фалсафа ва маънавият. – Тошкент: Ўзбекистон, – б.10.
7. Эргашев А. (2010). Инсон тафаккури ва борлиқ. – Самарқанд: СамДУ нашриёти, – б. 268.
8. Çetinkaya E. (2025) Aristotle on the causal efficacy of perceptible qualities // British Journal for the History of Philosophy, 33(1). – London: Routledge, – p.16-21.
9. Slakey T. (1961) Aristotle on sense perception // The Philosophical Review. – 1961. – T. 70. – p. 473.
10. Аристотель. (2018) Метафизика. Перевод / Вступ. статья и комм. А.В.Маркова. – М.: РИПОЛ классик, 2018. – 384 с.

11. Knuuttila S. (2008) Aristotle's theory of perception and medieval Aristotelianism // Theories of perception in medieval and early modern philosophy. – Dordrecht: Springer Netherlands, – p. 25-34.
12. Аристотель, (1972) О душе. кн. II, гл. 12. – Москва: Наука, – с.424.
13. Фома Аквинский. (2002). Сумма теологии. – Москва: Эдиториал УРСС, – с.48.
14. Pasnau R. (2022). Thomas Aquinas.//Stanford Encyclopedia of Philosophy. – Stanford: Metaphysics Research Lab, – p. 56-68.
15. Августин. (1991). Исповедь. – Москва: Республика, – с.90.
16. Ибн Сино. (1980). Китоб ул шифо. – М.: Наука, – с.34-45.
17. Maimonides. (2002). The Guide for the Perplexed // trans. M. Friedländer, Skokie. – IL: Varda Books, – p. 62.
18. Р. Декарт, (2005). Размышления о первой философии, – Москва, – с.89.
19. Дж. Локк, (2015) Опыт о человеческом разумении, кн. II, гл. 1, – Москва, – с.40.
20. Дж. Беркли, (2016). Трактат о принципах человеческого знания. – Москва, с.40.
21. Кант И. (2007). Критика чистого разума. – Москва: Изд-во Миград, – с.49.
22. Macpherson F. (2011). The senses: Classic and contemporary philosophical perspectives. – Oxford: Oxford University Press, – p. 136.
23. Heil J. (1982) Seeing is believing //American Philosophical Quarterly. – №. 3. – p. 229-239.
24. Нысанбаев А.Н. (2019) “Особенности восприятия общественным сознанием. – Алматы Ылым.
25. Мамедзаде И.Р. (2019) Современная философия Азербайджана. – Баку.
26. Эгембердиев Ш. (2020) Философия учебное пособие. – Бишкек.

Усманов Мухриддин Абдимуратович

доктор философии (PhD)

Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека

musmanov@gmail.com

(Ташкент, Узбекистан)

СУЩНОСТЬ ВОСПРИЯТИЯ КАК ОНТОЛОГИЧЕСКОГО ОСНОВАНИЯ СТИЛЯ МЫШЛЕНИЯ И ЕГО ЗНАЧЕНИЕ В ПОНИМАНИИ ВЗАИМООТНОШЕНИЙ МЕЖДУ СОЗНАНИЕМ И БЫТИЕМ

Аннотация. Восприятие выступает онтологическим основанием стиля мышления и имеет важное значение в понимании взаимоотношений между сознанием и бытием. Восприятие занимает решающее место в процессе принятия, осмысления и наделения смыслом бытия человеческим сознанием,

оказывая непосредственное влияние на формирование стиля мышления. Вместе с тем рассмотрение восприятия как абсолютного онтологического основания может привести к смещению на второй план социальной, исторической и культурной обусловленности мышления. В связи с этим в статье анализируется онтологическая сущность восприятия в его неразрывной связи с социально-культурными факторами сознания.

Ключевые слова: восприятие, стиль мышления, онтология, сознание, бытие, познание.

Usmonov Mukhriddin Abdimuradovich

Doctor of Philosophy (PhD)

National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek

musmanov@gmail.com

(Tashkent, Uzbekistan)

**THE ESSENCE OF PERCEPTION AS THE ONTOLOGICAL
FOUNDATION OF THE STYLE OF THINKING AND ITS SIGNIFICANCE
IN UNDERSTANDING THE RELATIONSHIP BETWEEN
CONSCIOUSNESS AND BEING**

Abstract. Perception serves as the ontological foundation of the style of thinking and plays an important role in understanding the relationship between consciousness and being. It occupies a decisive place in the process by which human consciousness perceives being, comprehends it, and endows it with meaning, thereby directly influencing the formation of a style of thinking. At the same time, treating perception as an absolute ontological foundation may lead to the marginalization of the social, historical, and cultural conditioning of thinking. Therefore, this study analyzes the ontological essence of perception in its inseparable connection with the socio-cultural factors of consciousness.

Keywords: perception, style of thinking, ontology, consciousness, being, cognition.

